

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
huzuridagi Jamoatchilik kengashi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi Nizomi (keyingi o‘rinlarda Nizom deb yuritiladi) Statistika agentligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining (keyingi o‘rinlarda — Jamoatchilik kengashi) asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlarini va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Jamoatchilik kengashi o‘z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.

3. Jamoatchilik kengashi Statistika agentligining markaziy apparati huzurida tashkil etiladi va uning faoliyati Statistika agentligining barcha hududiy bo‘linmalari hamda tasarrufidagi tashkilotlariga tadbiiq etiladi.

4. Jamoatchilik kengashi Statistika agentligi direktorining qarori bilan tashkil etiladi.

5. Jamoatchilik kengashining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

6. Jamoatchilik kengashi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlariga, statistika sohasidagi qonunchilik hujjatlari, mazkur Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

7. Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi Nizom va unga kiritiladigan o‘zgartirishlar hamda qo‘shimchalar Statistika agentligi direktorining qarori bilan tasdiqlanadi.

**2-bob. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari,
funktsiyalari, huquqlari va majburiyatlari**

8. Quyidagilar jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta‘minlash, Statistika agentligi zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha Statistika agentligi va uning mansabdor shaxslari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

birgalikda muloqot qilish, Statistika agentligining nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta‘minlash uchun Statistika agentligini fuqarolar bilan bog‘lab turadigan “ko‘prik” rolini bajarish;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan Statistika agentligining faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazish;

Statistika agentligi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o'tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

Statistika agentligi faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Statistika agentligi faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish va ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Statistika agentligi faoliyati bo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Statistika agentligining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflarni va foydalanuvchilarning rasmiy statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish bo'yicha takliflar berish;

statistika ma'lumotlarining shaffofligi, oshkoraligi va qulayligini oshirishni ta'minlash yuzasidan takliflar berish;

Statistika agentligi tomonidan dolzarb, sifatli va ishonchli statistikaning shakllantirilishi va jamoatchilikka yetkazilishiga ko'maklashish;

mavjud statistika ma'lumotlari haqida jamoatchilikning xabardorligini hamda ularning statistika ma'lumotlariga bo'lgan ishonchini oshirish uchun foydalanuvchilar bilan yaqindan aloqa o'rnatish;

mamlakatda milliy iqtisodiyot va ijtimoiy sohani isloh qilish jarayonlarining ishonchliligi va to'liqligini inobatga olgan holda Statistika agentligining "Statistika dasturi"ni ishlab chiqishda ishtirok etish va kelishish.

9. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Statistika agentligining faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda murojaatlarini ko'rib chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, ularni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Statistika agentligiga tegishli takliflar kiritadi;

Statistika agentligining fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorligini tahlil qiladi, shuningdek, hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

Statistika agentligi faoliyatiga taalluqli uning normativ-huquqiy hujjatlari va qarorlarini takomillashtirish, ulardagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi, shuningdek, kiritilgan takliflarni Statistika agentligi xodimlari o‘rtasida muhokama qilishga bag‘ishlangan tadbirlarni tashkil etishda qatnashadi;

davlat dasturlari loyihalarini, tadbirlar rejalarini va Statistika agentligi faoliyatiga taalluqli, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi boshqa hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlaydi, qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolatlari doirasida ishtirok etadi, bajarilgan ishlarning samaradorligini tahlil qiladi, shuningdek, yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

Statistika agentligi rahbarlari va xodimlarining fuqarolar bilan uchrashuvlarini, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq ishlarni tashkil etishda, shu jumladan joylarga borib tashkil etishda qatnashadi, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring o‘tkazadi;

Statistika agentligi, uning hududiy bo‘linmalari va tasarrufidagi tashkilotlarida sog‘lom ishchanlik muhitini rivojlantirish, qonuniylikni, yuksak huquqiy madaniyat va axloqiylikni ta‘minlash, xodimlarda Vatanga sodiqlik ruhini va qonunlarga bo‘lgan hurmatni kuchaytirish, ularni ijtimoiy, siyosiy, ruhiy va ma‘naviy-ma‘rifiy kamol toptirish, shuningdek, mazkur sohadagi ilmiy-ma‘rifiy va o‘quv adabiyotlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar berish;

mamlakatda va xorijda keng jamoatchilikni Statistika agentligi faoliyatini isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar haqida muntazam ravishda xabardor qilishni ta‘minlaydi hamda mavjud muammolarni hal qilish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar beradi;

Statistika agentligi faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlarida ishtirok etadi;

Statistika agentligi faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo‘yicha bajarilayotgan ishlarning natijalarini tahlil qiladi, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

mamlakatda milliy iqtisodiyot va ijtimoiy sohani isloh qilish jarayonlarining ishonchliligi va to‘liqligini inobatga olgan holda Statistika ishlari dasturini ishlab chiqishda ishtirok etadi va jamoatchilik kengashi majlislarida ko‘rib chiqilishi va kelishishilishini ta‘minlaydi;

o‘ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorlik qiladi.

10. Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun:

Statistika agentligi tomonidan tashkil etiladigan bo'lajak ochiq hay'at majlislari va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda ishtirok etish;

Statistika agentligining, jumladan uning hududiy bo'linmalari va tasarrufidagi tashkilotlarining binolari (xonalari) va boshqa obyektlarini Statistika agentligi tomonidan belgilangan tartibda borib ko'rish;

Statistika agentligi, uning hududiy bo'linmalari va tasarrufidagi tashkilotlari rahbarlariga jamoatchilik kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

Statistika agentligi faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan Statistika agentligining axborotlari, statistika va boshqa materiallarini belgilangan tartibda olish;

Jamoatchilik kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish huquqiga ega.

Jamoatchilik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

11. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda:

Jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilishi;

Jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlarida belgilangan cheklolarga amal qilishi;

Statistika agentligi va uning mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

Statistika agentligi va uning mansabdor shaxslari faoliyat ko'rsatishi uchun to'sqinlik qilmasligi;

fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymasligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiyligiga rioya qilishi shart.

3-bob. Jamoatchilik kengashi tarkibini shakllantirish va ishini tashkil etish tartibi

12. Jamoatchilik kengashining tarkibiga uning raisi, rais o'rinbosari, kotibi va a'zolari kiradi.

13. Jamoatchilik kengashi a'ziligiga, qoida tariqasida, davlat organida namunali xizmat ko'rsatgan mehnat faxriylari, jamoatchilik faoliyati sohalarida

katta amaliy tajribaga ega obro‘-e‘tiborli fuqarolar, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari qabul qilinadi.

Jamoatchilik kengashi a‘zolarining soni cheklanmagan.

14. Jamoatchilik kengashining tarkibi davlat organi rahbarining qarori bilan har 2 yilda tasdiqlanadi.

15. Quyidagi holatlarda jamoatchilik kengashining raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va a‘zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

ular tomonidan jamoatchilik kengashi tarkibidan chiqish to‘g‘risida ariza berilganda;

Jamoatchilik kengashining majlislarida muntazam ravishda ishtirok etmaganda, mazkur Nizomning 11-bandida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

vafot etganda, shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topilganda.

16. Jamoatchilik kengashining tarkibi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va unga kiritilgan o‘zgartirishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab, 5 kun ichida Statistika agentligining rasmiy veb-saytida e‘lon qilinadi.

17. Jamoatchilik kengashining raisi:

Jamoatchilik kengashining faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

Jamoatchilik kengashining majlislarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi;

Jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

Jamoatchilik kengashining ish rejasini, majlisi bayonnomasini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qiladi;

Jamoatchilik kengashi a‘zolarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarilishini muvofiqlashtiradi;

Statistika agentligining rasmiy veb-saytida va boshqa resurslarda joylashtiriladigan jamoatchilik kengashining faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tarkibi bo‘yicha takliflar kiritadi va uni Statistika agentligi direktori bilan kelishadi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarini bajarish masalalari yuzasidan Statistika agentligi direktori bilan hamkorlik qiladi;

Jamoatchilik kengashining samarali ishini ta‘minlash bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

18. Jamoatchilik kengashining raisi bo‘lmagan taqdirda, uning vakolatlari va majburiyatlarini rais o‘rinbosari bajaradi.

19. Jamoatchilik kengashi raisining o‘rinbosari:

rais yoʻqligida jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qilish boʻyicha ishlarni tashkil etadi;

fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladi, shuningdek, jamoatchilik kengashi faoliyatiga taalluqli murojaatlarni koʻrib chiqish boʻyicha ishlarni tashkil etadi;

Jamoatchilik kengashining samarali ishlarini taʼminlash boʻyicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

20. Jamoatchilik kengashining kotibi:

Jamoatchilik kengashining faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik jihatdan taʼminlash masalalarini hal qiladi;

Jamoatchilik kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar oʻz vaqtida tayyorlanishini taʼminlaydi, Statistika agentligi xodimlaridan zarur hujjatlar va maʼlumotlarni soʻrab oladi;

kun tartibiga muvofiq, Jamoatchilik kengashi majlislari oʻtkazilishini tashkil etadi;

Jamoatchilik kengashi oʻtkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar roʻyxatini jamoatchilik kengashining raisi bilan kelishadi;

Jamoatchilik kengashining aʼzolarini va taklif etilgan shaxslarni Jamoatchilik kengashi majlisi oʻtkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring olib boradi va uning natijalarini Jamoatchilik kengashi majlisida koʻrib chiqish boʻyicha takliflar kiritadi;

Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning Jamoatchilik kengashi aʼzolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga joʻnatilishini taʼminlaydi;

Jamoatchilik kengashining samarali ishlashini taʼminlash boʻyicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

21. Jamoatchilik kengashining aʼzolari oʻz majlislarida koʻrib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal qilishda oʻz vakolatini boshqalarga oʻtkazish huquqiga ega emas.

Jamoatchilik kengashining majlisida ishtirok etish imkoni boʻlmagan holatlarda, uning aʼzosi majlis kun tartibidagi masalalar boʻyicha oʻz fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin. Bunda uning fikri majlisda koʻrib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

Jamoatchilik kengashining aʼzolari:

oʻz zimmlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Statistika agentligi tomonidan tashkil etiladigan hayʼat majlislarida va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etadi;

Jamoatchilik kengashi ish rejalarining loyihalarini tayyorlaydi, ularni Jamoatchilik kengashida ko‘rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejalari bajarilishini ta‘minlaydi;

Statistika agentligi faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

Statistika agentligi xodimlari, ularning oila a‘zolari bilan uchrashuvlar o‘tkazadi va ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha takliflarni Jamoatchilik kengashiga kiritadi;

Jamoatchilik kengashining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bilan bog‘liq murojaatlarni ko‘rib chiqadi va natijalari bo‘yicha tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashining zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

22. Jamoatchilik kengashi faoliyatining asosiy masalalari uning majlisida ko‘rib chiqiladi. Jamoatchilik kengashining majlisi uning ish rejalari asosida har chorakda kamida bir marta chaqiriladi.

Jamoatchilik kengashining raisi jamoatchilik kengashi a‘zolarini uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisini chaqirishi mumkin.

23. Jamoatchilik kengashining majlislariga boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari taklif etilishi mumkin.

24. Jamoatchilik kengashi majlisi kun tartibining loyihasi kotib tomonidan jamoatchilik kengashi a‘zolarining takliflari va jamoatchilik kengashi raisining topshirig‘i asosida shakllantiriladi.

25. Jamoatchilik kengashining majlisida Statistika agentligi direktori, uning o‘rinbosarlari va boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

26. Jamoatchilik kengashining majlisi, agar unda Jamoatchilik kengashi a‘zolarining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Majlisni o‘tkazish uchun jamoatchilik kengashi a‘zolarining kamida uchdan ikki qismi shakllanmagan taqdirda, Jamoatchilik kengashining yangi majlisi o‘tkaziladigan sana e‘lon qilinadi.

27. Jamoatchilik kengashining qarori majlisda ishtirok etayotgan Jamoatchilik kengashi a‘zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

28. Jamoatchilik kengashining har bir a‘zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo‘yicha o‘zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Uning fikri Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo‘shib qo‘yiladi.

29. Jamoatchilik kengashining majlisida qabul qilingan qaror bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasi kotib

tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda Statistika agentligiga, Jamoatchilik kengashi a'zolariga va manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

30. Jamoatchilik kengashining qarorini tezlik bilan qabul qilish zaruriyati tug'ilganda, uning raisi tashabbusi bilan qaror jamoatchilik kengashining a'zolari bilan kelishilgan holda so'rov yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

Statistika agentligi direktori Jamoatchilik kengashining qabul qilgan qaroriga qo'shilmagan hollarda, Jamoatchilik kengashining qarorini olgan kundan boshlab o'n kundan kechikmay unga asoslantirilgan e'tirozini yozma shaklda yuboradi.

31. Jamoatchilik kengashining kotibi kengash a'zolari ko'magida Jamoatchilik kengashi qarorlari ijrosining borishini o'rganadi va ko'rib chiqadi, zarur bo'lgan hollarda, Jamoatchilik kengashining raisiga tegishli takliflar kiritadi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

32. Jamoatchilik kengashi faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash Statistika agentligi tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

33. Jamoatchilik kengashining faoliyati uning Nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq ekanligi Statistika agentligi direktori tomonidan nazorat qilinadi.

34. Jamoatchilik kengashining qarorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.